

**“TASDIQLAYMAN”**

Samarqand viloyat Uy-joy kommunal  
xizmat ko‘rsatish boshqarmasi boshlig‘i  
o‘rinbosari tanlov komissiyasi raisi



**D. Bozorov**

“20” dekabr 2021 yil

**Samarqand viloyati, Samarqand shaxar Rudakiy ko‘chasi 114-128-130-sonli ko‘p xonadonli uy-joylarni joriy ta‘mirlash bo‘yichabajaruvchi pudrat tashkilotini aniqlash bo‘yicha eng yaxshi taklifni aniqlash bo‘yicha tanlov komissiyasining**

**B-5152/1-1-sonli yig‘ilish BAYONNOMASI**

“20” dekabr 2021 yil

**Samarqand shahri**

Tanlov komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi Samarqand viloyati Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasining 2021 yil 31 martdagi 39-sonli buyrug‘ining 2-ilovasiga asosan quyidagi tarkibda tashkil etilgan.

**Komissiya raisi:**

**D. Bozorov**, Samarqand viloyat Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari;

**Komissiya raisi  
o‘rinbosari:**

**R.Xaljigitov**, “Ko‘p xonadonli uylarni mukammal va joriy ta‘mirlash hamda issiqlik ta‘minoti ob‘ektlarini qurish bo‘yicha injiniring kompaniyasi” DUK Samarqand viloyati hududiy filiali boshlig‘i;

**Komissiya a‘zolari:**

**A.Atayev**, “Ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi”ning Samarqand viloyat hududiy bo‘limi boshlig‘i;

**A.Shamsiyev**, Samarqand viloyati Davlat soliq boshqarmasining ma‘sul xodimi;

**N.Mamedov** "ARMAS" MCHJ loyiha tashkiloti  
ma'sul xodimi;

**Komissiya kotibi**

**A.Xolmirzayev**, Hududiy filiali bosh mutaxassisi.

### **KUN TARTIBI:**

Samarqand viloyati **Samarqand shahar Rudakiy ko'chasi 114-128-130-sonli ko'p xonadonli uy-joylarni joriy ta'mirlash bo'yicha** bo'yicha talabgor tashkilotlardan kelib tushgan tanlov takliflari bo'yicha birinchi, ikkinchi paketlar yig'ma jildlarini ochish, taqdim etilgan shakllar va hujjatlar bilan tanishib chiqish hamda komissiya tarkibi xulosasiga ko'ra tanlov g'olibi qurilish pudrat tashkilotini belgilash.

Komissiya raisi, D. Bozorov yig'ilishni ochiq deb e'lon qildi.

Komissiya raisi o'rin bosari R.Xaljigitov, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 iyuldagi "Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 5152-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, 2021 yilda Samarqand viloyatining shahar va tumanlaridagi ko'p xonadonli uylar atrofini obodonlashtirish ishlari bo'yicha daslabki manzilli dastur ishlab chiqilganligini va kun tartibidagi masala yuzasidan, tanlov savdolarini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat haridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni talablari asosida tanlov hujjatlari ishlab chiqilganligini, ishlab chiqilgan tanlov hujjatlariga muvofiq maxsus axborot portali dxarid.uzex.uzda 07.12.2021 yilda ishlarni bajarish qiymati (QQS bilan) **299 415 888 so'm**, ishlarni bajarib yakunlash muddati 30 kun bo'lgan **lot raqami 7179708** bilan e'lon joylashtirilganligini ma'lum qildi.

E'lon bo'yicha takliflarni qabul qilishning oxirgi muddati 15.12.2021 yilda tugallanganligini ta'kidlandi.

Takliflarni qabul qilishning oxirgi muddatiga qadar quyidagi talabgor tashkilotlar:

**1 "SAMKAT KAMRON"XK**

**2 "ERKIN OBOD QO'RG'ON" MCHJ**

**3 "MONTAJ STROY" MCHJ** lar tomonidan 2 tadan paketlarga solingan holda takliflar kelib tushganligini e'lon qildi.

Kommissiya a'zolari tomonidan **"SAMKAT KAMRON"XK,"ERKIN OBOD QO'RG'ON" MCHJ, "MONTAJ STROY" MCHJ** lar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tanlov hujjatlari talablariga mosligi hamda ularni muvofiqligini o'rganib chiqish uchun tanlov komissiyasi tarkibidan baholash guruhini tuzish taklif etildi.

Baholash guruhi tarkibiga komissiya a'zolaridan D.Bozorov, R.Xaljigitov, N.Mamedov va A.Ataev A.Shamsiyevlar kiritildi.

### **I – Bosqich:**

1-paketlar ochilganda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

1. **"SAMKAT KAMRON" XK** tomonidan taqdim etilgan 1-paketda 1, 2, 3, 4 va 5-ilovalar to'liq taqdim etilgan.
2. **"ERKIN OBOD QO'RG'ON" MCHJ** tomonidan taqdim etilgan 1-paketda 1, 2, 3, 4 va 5-ilovalar to'liq taqdim etilgan.
3. **"MONTAJ STROY" MCHJ** tomonidan taqdim etilgan 1-paketda 1, 2, 3, 4 va 5-ilovalar to'liq taqdim etilgan.

I – Bosqich natijalari bo'yicha tanlov komissiyasi bir ovozdan barcha tanloq qatnashchilari II-bosqichga o'tganini qo'l ko'tarib tasdiqladilar.

### **II – Bosqich:**

Komissiya raisi II-bosqichga o'tishni va ikkinchi paketlarni ochishni aytdi va paketlar ochildi. Paketlar ochilganda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

1. **"SAMKAT KAMRON" XK** narxi **284 683 787** so'm (QQS bilan) ob'ektni foydalanishga topshirish muddati –20 kun.
2. **"ERKIN OBOD QO'RG'ON" MCHJ** narxi **286 544 400** so'm (QQS bilan) ob'ektni foydalanishga topshirish muddati –25 kun.
3. **"MONTAJ STROY" MCHJ** narxi **269 477 431** so'm (QQS bilan) ob'ektni foydalanishga topshirish muddati –30 kun.

Tanlov komissiyasi,

### **QAROR QILADI:**

Samarqand viloyati Samarqand shahar Rudakiy ko'chasi 114-128-130-sonli ko'p xonadonli uy-joylarni joriy ta'mirlash bo'yicha I va II-bosqich natijalari bo'yicha o'tkazilgan eng yaxshi taklifni tanlash bo'yicha tanlov savdolarida (QQS bilan) **269 477 431 (Ikki yuz oltmish to'qqiz million to'rt yuz yetmish yetti ming to'rt yuz o'ttiz bir) so'mga** ishlarni yakunlash muddati **30 kunlik** taklif bilan

"MONTAJ STROY" MCHJ tanlov savdolari g'olibi deb topilsin.

1. "MONTAJ STROY" MCHJ bilan o'rnatilgan tartibda shartnoma rasmiylashtirilsin va ishni bajarish bo'yicha tegishli hujjatlari taqdim etilsin.

R.Xaljigitov




A.Ataev



A.Shamsiyev



N.Mamedov



Komissiya

kotibi

A.Xolmirzayev

